

**ABDULHAMID SULAYMONQUL O‘G‘LI CHO‘LPON IJODINING ICHKI
ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING MA’NAVIY QIYOFASINI
SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI**

*Raximov Xurshidbek Mansurbek o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi kursanti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ichki ishlar organlari xodimlarining ma’naviy qiyofasini shakllantirishda eng muhim omillardan bo’lmish, Abdulhamid Sulaymonqul o‘g‘li Cho‘lpone ijodining ahamiyati xususida fikr yuritilgan.

Abstract: This article discusses the importance of the work of Abdulhamid Sulaymonkul oglu Cholpon, one of the most important factors in shaping the spiritual image of internal affairs officers.

Kalit so‘zlar: Abdulhamid Sulaymonqul mulla Muhammad Yunus o‘g‘li Cho‘lpone, Ichki ishlar organlari, yangi O‘zbekiston, jadid, jadid adabiyoti, ma’naviyat, ma’naviy qiyofa.

Key words: Abdulhamid Sulaymonqul Mullah Muhammad Yunus oglu Cholpon, Internal Affairs Bodies, New Uzbekistan, New, New Literature, Spirituality, Spiritual Image.

Vatanimiz tinchligi va osayishtaligi, xalqimizning farovon turmush kechirishida Ichki ishlar organlarining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Binobarin, yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev boshchiligidagi Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish maqsadida tizimli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Buning yaqqol namunasi Davlat rahbarining 2023-yil 20-yanvardagi “**Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida**” gi PQ-10-soni qaroridir. Qarorga muvofiq, Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksi tasdiqlandi. Ushbu kodeksda Yurtboshimizning sohaga ishonch bilan: “**Agar davlat tayanadigan asosiy ustun qonun bo‘lsa, uning kuchini amalda namoyon etadigan eng samarali tizim bu ichki ishlar sohasi, desak ayni haqiqat bo‘ladi,**” -degan ulug‘vor jumlalari keltirilgan. Hozirgi kunda tizimda amalga oshirilayotgan islohotlardan asosiy maqsad, Ichki ishlar organlarida xizmat olib borayotgan barcha xodimlarning salohiyatini, bilimini, kasbiy mahoratini oshirish, sohaning haqiqiy mutahasislariga aylanishlarini ta’minlash hamda ularda yuqori intelekt va salohiyatni shakllantirishdir. Modomiki, xodimlarning ma’naviy qiyofasi yuksak darajada shakllansa, xizmat faoliyatida qonuniylik ta’minlanadi, fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari himoya qilinishi ustuvor vazifaga aylanadi, eng muhimi vatan oldidagi

burch sidqidildan ado etiladi. Sohada fidoiy xizmat qilayotgan xodimlarining dunyo qarashini boyitishda jadid adabiyotining hissasi beqiyos albatta. Jumladan, jadid namoyandalaridan bo‘lmish Abdulhamid Sulaymonqul mulla Muhammad Yunus o‘g‘li Cho‘lpon o‘z ijodida asosan jondan aziz Vatani bo‘lmish Turkistonni tarannum etgan. Abdurahmon Sadiy Abdulhamid Cho‘lponni “**Cho‘lpon chin ma’nosi bilan ramantik bir yurak shoiri (lirik)dir. Lekin uning yuragi shaxis hissiyot bilan emas, ijtimoiy hissiyot bilan to‘lg‘on va qaynag‘an bir yurakdir,**”- deb ta’riflagan. Bundan ko‘rinib turibdiki, Abdulhamid Cho‘lpon xalq dardi va millat qayg‘usiga umrini bag‘ishlagan insondir. Yangi O‘zbekistonning yangi ichki ishlar organlari xodimlari ham hozirgi zamon Cho‘lponidek xizmat burchlarini vijdonan va sidqidildan bajarishlari lozim.

Abdulhamid Sulaymonqul o‘g‘li Cho‘lpon

Abdulhamid Sulaymonqul o‘g‘li Cho‘lpon haqida gap ketar ekan, prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning “**Adabiyot va san’atga, madaniyatga e’tibor, bu, avvalo, xalqimizga e’tibor, kelajagimizga e’tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho‘lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, milat yashashi mumkinligini unitishga bizni aslo haqqimiz yo‘q,**”- degan davatlari har bir Ichki ishlar organlari xodimlarini, balki barcha yosh avlodni ilm olishga, o‘qishga chorlaydi. Adib o‘n yetti yoshidan boshlab adabiyot ummoniga bir tomchi sifatida mayda qadamlar bilan kirib keldi. Adib har bir yaratgan asari orqali xalqini ilmli qilish, ma’rifat tarqatish g‘oyalarini ifoda qildi. O‘zining dastlabki “**Qurbanu jaholat**” maqolasida xalqning gazet o‘qimasligini, aksincha, gazetlarga faqat aqcha topish uchun faqat yolg‘on gaplarni yozadigan oddiy qog‘ozdek qarashlari aytib o‘tadi. “**Do‘xtir Muhammadyor**” maqolasida esa, jaholat botqog‘iga botgan Turkistonliklar ilm uchun pul ajratmasligi, faqat topganlarini to‘y-tomoshalarga sarf qilishini yoritib beradi. Muhammadyor boshqa xalqlar ko‘magi bilan ilm olib, zamonaviy shaharlarga borib, o‘zining qishlog‘iga qaytib ilm-u ma’rifat ulashganini, hamma insonlar do‘xtir Muhammadyordek bo‘lishini ushbu maqolasi orqali yetkazmoqchi bo‘ladi. Abdulhamid Sulaymonqul o‘g‘li Cho‘lponning asarlari haqida gapirilganda, uning shoh asari hisoblanmish “**Kecha va kunduz**” romani haqida gapirmaslikning iloji yo‘q. Chunki, asr oshgan bu raman XX asr boshlaridagi Turkistonning real voqealarini aks ettirgan. Asar shunchaki qahramonlarning sarguzashtlari haqida emas, balki Turkiston tarixini milliy ko‘rinishda ifodalagan asar darajasiga ko‘tarildi. Unda rus hukumatining mustammakachilik siyosati chuqur yoritib berilgan. Romanda yana shuni ko‘rishimiz mumkinki, o‘zbek xalqining erkinlik, mustaqillik haqidagi qarashlari endigina kurtak yoza boshlagandi. Adabiyotshunoslarning fikricha, bu o‘zbek jadidchilik harakatlari boshlangan manzara edi. Xullas, o‘zbek romanchiligi endigina shakllanayotgan davrda dunyoga kelgan “**Kecha va kunduz**” romani hayotiyligi, milliy rang-barangligi, sof o‘zbek lug‘atiga boyligi, mazmunan teranligi hamda

qahramonlar haraktering butunligi va to‘kisligi bilan realizm tantanasiga munosib hissa qo‘shdi.

Abdulhamid she’riyat sohasida ham o‘chmas iz qoldirdi. Asosan “Barmoq vazni” da she’rlar bitdi. She’rlarida ham xalqni ma’rifatli qilish, milliylikni saqlab, ozod va hur davlat barpo qilish kabi g‘oyalarni aks ettirdi.

Tiriksen, o‘limgansen,
Sen-da odam, sen-da insonsen;
Kishan kiyma, bo‘yin egma-
Ki, sen ham hur tug‘ulg‘onsen!..

Ushbu she’riy parcha ham buning yaqol ifodasidir. Adib 1917-yilda Turkiston muhtoriyati” tashkil etilgan vaqtarda to‘lib-toshib ijod qildi. Bunda uning “Ozod turk bayrami” she’ri barcha millatning hayqirig‘iga aylandi. Muhtoriyatning madhiyasiga aylangan ushbu she’rda quyidagi jumlalar keltirilgan;

Ko‘z oching, boqing har yon!
Qardoshlar qanday zamon!
Shodlikka to‘ldi jahon!
Fido bu kunlarga jon!

Abdulhamid Cho‘lpon ushbu she’ri orqali hozirgi mustaqil O‘zbekistonimizning bugungi yorqin kunlarini his qilgandek go‘yo! Biz har bir yosh avlodni uning ijodini mutolaa qilishga davat qilishimiz lozim. Zero, bugungi mustaqil, dorug‘lamon O‘zbekistonimizga o‘z-o‘zidan erishganimiz yo‘q. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Abdulhamid Sulaymonqul o‘g‘li Cho‘lpon nafaqat millatimizning vatanparvar o‘g‘loni, balki, harbir yosh avlod o‘rnak oladigan buyuk siyodir!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 20.01.2023-yildagi PQ-10-sonli qarori <https://lex.uz/docs/-6364837>
2. Abdulhamid Cho‘lpon asarlari 2-jild Toshkent “akademnashr” 2016
3. Abdulhamid Cho‘lpon asarlari 3-jild Toshkent “akademnashr” 2016
4. Abdulhamid Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani
5. Jadidlar to‘plamining Abdulhamid Cho‘lpon kitobi yoshlar nashriyot uyi 2022